

Family and Society Relations in the Works of Gafur Ghulam

Tashkent State University of Law 3rd year student

Abdixoliqova Ruxshona

abdixoliqovaruxshona@gmail.com

Abstract.

This article analyzes the issue of family and society relations in the works of Gafur Ghulam from both artistic and social perspectives. In the writer's works, the family is interpreted as the main environment for human upbringing and personal development, while socio-economic problems in society directly affect the stability of the family. In particular, through the analysis of characters and events in the stories "*Shum Bola*" and "*Yodgor*", the issues of children's upbringing, family environment, kindness, social inequality, poverty, and the influence of society on human destiny are revealed.

Keywords: family, society, family and society relations, social environment, human upbringing, children's upbringing, spiritual values, social problems, kindness, moral education, artistic image, realism.

G'afur G'ulom asarlarida oila va jamiyat munosabatlari

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich talabasi

Abdixoliqova Ruxshona

abdixoliqovaruxshona@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada G'afur G'ulom asarlarida oila va jamiyat munosabatlari masalasi badiiy hamda ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Yozuvchining asarlarida oila inson tarbiyasi va shaxs kamolotining asosiy muhiti sifatida talqin etilishi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar esa oilaning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi misollar orqali yoritiladi. Xususan, "Shum bola" va "Yodgor" qissalaridagi obrazlar va

voqealar tahlili orqali bolalar tarbiyasi, oilaviy muhit, mehr-oqibat, ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik va jamiyatning inson taqdiriga ta'siri masalalari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, oila va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy muhit, inson tarbiyasi, bolalar tarbiyasi, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy muammolar, mehr-oqibat, axloqiy tarbiya, badiiy obraz, realizm, Shum bola, Yodgor.

O'zbek adabiyoti taraqqiyotida o'ziga xos o'rin egallagan buyuk ijodkorlardan biri - G'afur G'ulom hisoblanadi. Uning asarlari nafaqat badiiy jihatdan yuksak, balki chuqur ijtimoiy mazmuni bilan ham ajralib turadi. Yozuvchi o'z davrining dolzarb muammolarini sodda, hayotiy va ta'sirchan obrazlar orqali yoritib bera olgan. Ayniqsa, uning asarlarida oila va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar, inson taqdirining ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqligi chuqur tahlil qilinadi. G'afur G'ulom ijodida oila bu shunchaki kichik ijtimoiy birlik emas, balki inson kamoloti, tarbiyasi va hayot yo'lini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, jamiyatdagi tengsizlik, qashshoqlik, beparvolik kabi muammolar oilaga qanday ta'sir ko'rsatishi yozuvchi asarlarida ochiq va real tasvirlangan. Bu jihatlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaganligi bilan ahamiyatlidir.

G'afur G'ulom asarlarida oila va jamiyat munosabatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlanadi. Yozuvchi oila ichidagi muammolarni alohida holat sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy sharoitlarning natijasi sifatida ko'rsatadi. Bu esa uning realizmga asoslangan ijodiy yondashuvini yaqqol namoyon etadi. Masalan, Shum bola qissasida bosh qahramonning hayoti orqali oilaning parchalanishi va jamiyatdagi beqarorlikning bolalar taqdiriga qanday ta'sir qilishi juda ta'sirchan ifodalangan. Asarda bola mehr va e'tibordan mahrum holda ulg'ayadi. Uning sho'xligi, sarguzashtlarga moyilligi aslida ichki bo'shliq va e'tiborsizlik natijasi ekanligi seziladi. Bu yerda yozuvchi muammoni faqat bolaning xulqi bilan izohlamaydi, balki uning ortida turgan ijtimoiy omillarni ochib beradi.

Oila muhiti sogʻlom boʻlmagan jamiyatda barkamol insonni tarbiyalash qanchalik mushkul ekanligi aynan shu qissada yorqin koʻrinadi. Bola koʻcha tarbiyasida ulgʻayadi, natijada uning axloqiy qarashlari ham beqaror shakllanadi. Bu esa bugungi kunda ham dolzarb boʻlgan muammolardan biri - bolalarning notoʻgʻri muhit taʼsiriga tushib qolishi masalasini eslatadi.

Shuningdek, yozuvchining Yodgor asarida ham oila va jamiyat oʻrtasidagi murakkab bogʻliqlik alohida oʻrin tutadi. Bu qissada insonning shaxs sifatida shakllanishida oilaning oʻrni bilan birga jamiyatning bosimi va taʼsiri ham chuqur tasvirlanadi. Qahramonning ichki kechinmalari, uning jamiyat bilan toʻqnashuvi orqali yozuvchi oʻquvchini oʻylashga majbur qiladi: insonni tarbiyalaydigan faqat oila emas, balki uni oʻrab turgan muhit ham katta rol oʻynaydi. Gʻafur Gʻulom asarlarida koʻpincha kambagʻallik muammosi oila buzilishining asosiy sabablaridan biri sifatida koʻrsatiladi.¹ Qashshoqlik insonlarni majburiy qarorlar qabul qilishga undaydi, baʼzan esa axloqiy mezonlarning buzilishiga olib keladi. Bu holat oiladagi mehr-oqibatning susayishiga, hatto ayrim hollarda butunlay yoʻqolishiga sabab boʻladi. Yozuvchi bu muammoni juda nozik va haqqoniy tasvirlaydi. Masalan, uning hikoyalarda ota-onaning farzandga eʼtibor bera olmasligi, ularning ogʻir mehnat yoki ijtimoiy muammolar bilan bandligi sababli bolalar eʼtiborsiz qolib ketishi tez-tez uchraydi. Bu esa jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bevosita oilaga taʼsir qilayotganini koʻrsatadi. Bugungi kunda ham bandlik, migratsiya, iqtisodiy qiyinchiliklar sabab koʻplab oilalarda shunga oʻxshash holatlar kuzatilmoqda.

Yozuvchi asarlarining yana bir muhim jihati unda insoniylik, mehr-oqibat va sabr kabi fazilatlar yuqori qadrlanadi. Qanchalik ogʻir sharoit boʻlmasin, ayrim qahramonlar oʻz insoniyligini saqlab qoladi. Bu esa oila qadriyatlarining barqarorligi uchun muhim omil ekanini anglatadi. Masalan, mehribon insonlar obrazi orqali yozuvchi shuni

¹ <https://gafur-gulom-library-one.netlify.app/>

ko'rsatadiki, jamiyat qanchalik murakkab bo'lmasin, inson o'z axloqiy prinsiplariga sodiq qolishi mumkin. Bu esa oila mustahkamligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

G'afur G'ulom ijodida yana bir e'tiborli jihat kulgi va satira orqali jiddiy muammolarni ochib berishdir. Ayniqsa, "Shum bola"da kulgili voqealar ortida aslida jamiyatdagi jiddiy kamchiliklar yashiringan. Bu uslub o'quvchini zeriktirmasdan, balki o'ylantirib, muammoga boshqacha nigoh bilan qarashga undaydi.

Bugungi zamonaviy jamiyat nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, G'afur G'ulom ko'targan muammolar hanuz dolzarb. Masalan: oilalarda tarbiya masalasining sustlashuvi, bolalarning internet va tashqi muhit ta'siriga tushib qolishi, iqtisodiy muammolar sabab oila ichidagi nizolar va ota-onalarning farzandlarga yetarli e'tibor bera olmasligi kabi masalalarda ko'rinadi. Aksariyat hollarda oiladagi ajrashishlar farzand tarbiyasi va psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat oiladagi tushunmovchilik, farzandning ota-ona o'rtasida qolishi vaziyatlarini keltirib chiqaradi. Yildan-yilga oshib borayotgan ajrimlar ko'rsatgichi O'zbekistonda ham kuzatilib kelinmoqda, hozirgi kunda O'zbekistonda 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 23,3 mingta nikohdan ajralish holati qayd etilgan. Bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 800 taga ko'p. Biroq bu holatlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ham ishlab chiqilmoqda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Vazirlar Mahkamasining qarori va boshqa ko'plab qonunosti hujjatlari buning yaqqol dalili bo'la oladi.² Shunga qaramasdan, ajrimlarning 60,6% (14,1 ming) shaharlarda, 39,4% (9,2 ming) qishloq hududlarida kuzatilgan. Eng ko'p ajrim holatlari Toshkent

² <https://lex.uz/docs/-5193551>

shahri (1,5 ming), Toshkent viloyati (1,2 ming) va Farg‘ona viloyati (1,2 ming)da qayd etilgan. Eng kam ajrim esa Navoiy viloyatida - 310 ta.³

Xulosa qilib aytganda, G‘afur G‘ulom asarlarida oila va jamiyat munosabatlari masalasi chuqur va har tomonlama yoritilgan. Yozuvchi oila muammolarini alohida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy omillar bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Bu esa uning asarlarini yanada hayotiy va ta‘sirchan qiladi. Uning asarlarida oila - inson tarbiyasining asosiy maskani sifatida ko‘rsatilsa, jamiyat esa bu jarayonga kuchli ta‘sir ko‘rsatuvchi muhit sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, “Shum bola” va “Yodgor” kabi asarlar orqali bolalar taqdiri, tarbiya masalasi va ijtimoiy muammolar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik aniq ochib berilgan. G‘afur G‘ulom ijodining bugungi kundagi ahamiyati shundaki, u o‘quvchini o‘z hayoti, oilasi va jamiyatga bo‘lgan munosabati haqida o‘ylashga majbur qiladi. Uning asarlari orqali biz oila qadriyatlarini asrash, farzand tarbiyasiga jiddiy e‘tibor qaratish va jamiyatdagi muammolarga befarq bo‘lmaslik zarurligini anglaymiz. Shunday ekan, G‘afur G‘ulom ijodi nafaqat adabiy meros, balki hayotiy saboq manbai sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Erta ajrimning asosiy sabablari va ularni oldini olish yo‘nalishi mavzusidagi maqola-Ibrohimova Sitara Ilhomjon qizi maqolasi-<https://www.in-academy.uz/>

2. G‘afur G‘ulom elektron kutubxonasi <https://gafur-gulom-library-one.netlify.app/>

3. <https://lex.uz/>

4. <https://oyina.uz/uz/posts/28950>

³ <https://oyina.uz/uz/posts/28950>